

JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI



2024-yil yanvar-may oyi


- To'g'ridan to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar
- Boshqarmaning elektron pochta va virtual qabulxona orqali kelib tushgan murojaatlar
- Boshqarma rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabuldagi og'zaki murojaatlar

Viloyat statistika boshqarmasiga 2024-yilning yanvar-may oylarida jismoniy va yuridik shaxslardan **41** ta (o'tgan yilning shu davrida **44** ta) murojaatlar kelib tushgan.

Shu jumladan, kelib tushgan murojaatlarning **20 tasi** to'g'ridan to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar, **19 tasi** boshqarma rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabuldagi og'zaki murojaatlar, **2 tasi** virtual qabulxona orqali kelib tushgan murojaatlardan iborat.

Murojaatlar: (mazmun-mohiyati bo'yicha)

Ulushi-foizda




- Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasidan ma'lumotlar berish
- Nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini olish
- Statistika hisobotlarini to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirishlar berish
- O'z faoliyatini amalga oshirish uchun amaliy yordam berish yuzasidan
- Boshqa murojaatlar

Kelib tushgan murojaatlarning mazmun mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra, 8 tasi (13,0 foiz) Davlat registr bazasiga kiritish, chiqarish, faoliyat turi, statistik kodlar berish bo'yicha ma'lumotlar so'raglan, 4 tasi (17,4 foiz) nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini taqdim etish yuzasidan, 1 tasi (4,3 foiz) Statistika hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirish berish yuzasidan, 3 tasi (13,0 foiz) Viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqa statistik ma'lumotlarni taqdim etish yuzasidan, 12 tasi (26,2 foiz) O'z faoliyatini amalga oshirish uchun amaliy yordam berish so'rash yuzasidan, hamda 13 tasi (39,1 foiz) boshqa masalalar yuzasidan kelib tushgan murojaatlarni tashkil qilgan.

Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlili


Soni-birlikda



Viloyat statistika boshqarmasiga asosiy qismi Namangan shahridan **9** ta (o'tgan yilning shu davrida **23** ta) murojaatlarni tashkil etgan. Shuningdek, **2** ta Mingbuloq tumanidan, **2** ta Kosonsoy tumanidan, **4** ta Namangan tumanidan, **4** ta Norin tumanidan, **6** ta Pop tumanidan, **2** ta To'raqo'rg'on tumanidan, **4** ta Uychi tumanidan, **2** ta Uchqo'rg'on tumanidan, **1** ta Yangiqo'rg'on tumanidan, **4** ta Davlatobod tumanidan, **1** ta Boshqaviloyatdan murojaatlar kelib tushgan.

Murojaatlarni ko'rib chiqish holati

Soni-birlikda



Viloyat statistika boshqarmasiga kelib tushgan murojaatlarning **35** tasiga chora ko'rildi, **6** tasi tushuntirildi, ko'rib chiqish jarayonida hamda rad etilgan murojaatlar mavjud emas.

Murojaatlar turlari bo'yicha



Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan **34,2** foizi (**14 ta**) jismoniy shaxslar va **65,8** foizi (**27 ta**) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.

Eslatib o'tamiz:

O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xohlaysizmi, quyidagi,

- 
- **Ishonch telefonlari**
 - (69)211-00-72

- 
- **Viloyat statistika boshqarmasi rahbariyatiga bevosita murojaat etish**
 - (0369)227-85-08

- 
- Pochta manzili – namstat@umail.uz, info@namstat.uz elektron manziliga murojaat etishingiz mumkin.

Namangan viloyati statistika boshqarmasi

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati bo'limi

Nashr uchun mas`ul:

E. Mamatqosimov
(0369) 227-85-06